
Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning hozirgi holati, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari**Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi**
dilxumora.shoisaeva2306@gmail.com*Tayanch doktorant,
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik milliy
mahorat instituti*

Annotatsiya *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning bugungi holati, mavjud muammolar hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishga qaratilgan islohotlar natijasida ta'lim jarayonida muayyan ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Shunga qaramay, maktablarda ingliz tilini o'qitishda o'qituvchilarning malakasi, darsliklar sifati, metodik ta'minot va dars jarayonidagi kommunikativ yondashuvning yetarli darajada emasligi kabi qator muammolar saqlanib qolmoqda. Maqolada shu kabi muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari hamda ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy tendensiyalar, jumladan, raqamli texnologiyalar, CLIL va kommunikativ metodlar asosida yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar *Ingliz tili, umumta'lim maktabi, xorijiy tilni o'qitish, ta'lim sifati, metodika, kommunikativ yondashuv, CLIL, raqamli texnologiyalar, muammo va tendensiyalar, o'qituvchi malakasi*

Современное состояние, текущие проблемы и тенденции развития преподавания английского языка в общеобразовательных школах**Шоисаева Дилхумора Шожалил кизи**
dilxumora.shoisaeva2306@gmail.com*Докторант,
Национального института
педагогического мастерства имени
Абдуллы Авлони*

Аннотация *В данной статье анализируется современное состояние преподавания английского языка в общеобразовательных школах, существующие проблемы и тенденции развития. В последние годы в Узбекистане в результате реформ, направленных на изучение иностранных языков, в частности английского языка, наблюдаются определенные положительные сдвиги в образовательном процессе. Тем не менее, в преподавании английского языка в школах сохраняется ряд проблем, таких как недостаточная квалификация учителей, качество учебников, методическое обеспечение и коммуникативный подход к уроку. В статье анализируются подобные проблемы и рассматриваются пути их решения, а также современные тенденции, способствующие повышению эффективности обучения английскому языку, в том числе подходы, основанные на цифровых технологиях, CLIL и коммуникативных методах. Результаты исследования послужат разработке предложений и*

рекомендаций по повышению качества преподавания английского языка в общеобразовательных школах.

Ключевые слова

Английский язык, общеобразовательная школа, преподавание иностранного языка, качество образования, методика, коммуникативный подход, CLIL, цифровые технологии, проблемы и тенденции, квалификация учителя

Current state of teaching English in general education schools, current problems and development trends

Shoisaeva Dilkhumora Shojalil qizi
dilxumora.shoisaeva2306@gmail.com

*Basic doctorate student,
National institute of pedagogical skills named
after Abdulla Avloni*

Annotation

This article analyzes the current state of English language teaching in general education schools, existing problems, and development trends. In recent years, as a result of reforms aimed at studying foreign languages, in particular English, certain positive shifts have been observed in the educational process in Uzbekistan. Nevertheless, a number of problems remain in teaching English in schools, such as the insufficient level of teachers' qualifications, the quality of textbooks, methodological support, and the communicative approach to the learning process. The article analyzes such problems and examines ways to overcome them, as well as modern trends serving to increase the effectiveness of English language teaching, including approaches based on digital technologies, CLIL, and communicative methods. The research results will serve to develop proposals and recommendations for improving the quality of English language teaching in general education schools.

Keywords

English language, general secondary school, foreign language teaching, quality of education, methodology, communicative approach, CLIL, digital technologies, challenges and trends, teacher qualification

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni bilish har bir shaxsning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, ingliz tili bugungi kunda xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya va biznesning asosiy vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Shu boisdan ham O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish

sifatini oshirishga qaratilgan bir qator qaror va dasturlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi 5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan muhim hujjatdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-

yil 27-iyundagi 239-sonli qarori ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu qarorlar asosida umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni va metodikasi yangilanmoqda, yangi darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda, o'qituvchilarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shunga qaramay, amaliyotda ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator tizimli muammolar – o'qituvchilarning kasbiy malakasida farqlar, darslik va metodik ta'minotdagi kamchiliklar, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning yetarli qo'llanilmasligi kabi holatlar uchramoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodikalar va xalqaro tajribalarni o'rganish asosida ushbu jarayonda ijobiy tendensiyalar ham shakllanmoqda.

Adabiyotlar va Metodologiya

Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayonining hozirgi holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi (Karimova, 2022). Asosiy ma'lumotlar O'zbekistonning turli hududlaridagi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan ingliz tili o'qituvchilari, metodistlar hamda maktab rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma, intervyular va kuzatuvlar asosida yig'ildi.

So'rovnoma savollari ingliz tilini o'qitishdagi metodik yondashuvlar, o'qituvchilarning malaka darajasi, ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik, dars jarayonida duch kelinayotgan muammolar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish holatini o'z ichiga oldi. Intervyular esa chuqurroq tahlilni amalga oshirishga xizmat qildi.

Shuningdek, ingliz tilini o'qitish sohasidagi milliy va xalqaro hujjatlar, ilg'or xorijiy tajribalar, CLIL va kommunikativ metodlar haqidagi ilmiy-adabiy manbalar o'rganilib, solishtirma tahlil asosida umumlashtirildi. Olingan ma'lumotlar asosida statistik va kontent tahlil usullari yordamida asosiy xulosalar chiqarildi (Richards & Rodgers, 2014).

O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tilini erta bosqichlardan boshlab o'qitishga qaratilgan islohotlar davom etayotgan bo'lsa-da, uning samaradorligi turli maktablarda bir xil emas. Asosiy ilmiy muammo – umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish sifati va metodikasining zamonaviy talablar darajasida emasligi, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi hamda ta'lim vositalarining yetarli emasligi bilan bog'liq ekani aniqlandi.

Tadqiqot metodlari sifatida:

- So'rovnoma – 50 nafardan ortiq ingliz tili o'qituvchilari orasida o'tkazilib, dars jarayonida duch kelinayotgan asosiy qiyinchiliklar va ehtiyojlar aniqlangan;
- Yarim strukturalashtirilgan intervyular – tajribali o'qituvchilar va metodistlar bilan olib borilib, mavjud muammolarning chuqur sabablari o'rganilgan;
- Kuzatuvlar – dars jarayonida zamonaviy metodikalarning real qo'llanilishi baholangan;
- Hujjatlar tahlili – darsliklar, o'quv dasturlar va milliy hamda xalqaro normativ hujjatlar o'rganilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi holatlar aniqlandi:

1. Aksariyat maktablarda ingliz tili darslari an'anaviy, grammatikaga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib boriladi, bu esa o'quvchilarning muloqotga kirishish ko'nikmasini rivojlantirishda yetarli bo'lmayapti.
2. O'qituvchilarning taxminan 40% i zamonaviy metodikalaridan – masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning), task-based learning yoki kommunikativ yondashuvdan foydalanmasligi ma'lum bo'ldi.
3. Maktablarning katta qismida internet, audio-vizual vositalar, interaktiv platformalar bilan ta'minlanish darajasi past bo'lib, bu raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.
4. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish kurslarida ishtirok etish darajasi ham past (so'rovda qatnashganlarning 60% i

so'nggi 2 yil ichida malaka oshirmaganini bildirgan).

Shu bilan birga, ayrim ilg'or maktablarda innovatsion yondashuvlar va xalqaro loyihalar doirasidagi hamkorliklar samarali natijalar bermoqda. Bunday tajribalar umumlashtirib, keng miqyosda joriy etilishi zarur.

Natijalar va Muhokamalar

Natijalar umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayonida mavjud bo'lgan tizimli muammolarni ochib berdi va ayrim ijobiy tendensiyalarni aniqladi. Ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanmada ta'kidlanishicha: o'quv jarayonini tashkil etishdagi eng muhim jihati, o'qituvchilarning dars jarayonida qanday metodik yondashuvni qo'llay olishidir (2023). Quyida asosiy natijalar bayon etiladi:

O'qituvchilarning metodik yondashuvlari: so'rovnoma natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 62 foizi ingliz tilini o'qitishda asosan grammatik tarjima va an'anaviy yodlashga asoslangan metodlardan foydalanadi. Faqatgina 18 foizi kommunikativ yondashuvni, 11 foizi esa CLIL yoki topshiriqqa asoslangan metodikalarni qo'llashini bildirdi.

Raqamli vositalardan foydalanish: o'rganilgan maktablarning 55 foizida ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalar (interaktiv doska, audio-video materiallar, onlayn platformalar)dan foydalanish imkoniyati cheklangan. Sabablari sifatida texnik vositalarning yetishmasligi va o'qituvchilarning texnologik savodxonligining pastligi ko'rsatilgan.

Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari: so'rovda qatnashgan o'qituvchilarning 60 foizi so'nggi 2 yil ichida malaka oshirish kurslarida qatnashmagan. 70 foizi esa o'zining zamonaviy dars metodikalariga tayyor emasligini tan oldi.

O'quvchilarning til ko'nikmalari: o'quvchilarning og'zaki nutq va tinglab tushunish ko'nikmalari yozma ko'nikmalarga nisbatan ancha sust ekani kuzatildi. Bu esa kommunikativ metodlarning kam qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

Ijobiy tajribalar: ayrim maktablarda xalqaro loyiha va grantlar asosida tashkil etilgan multimedia xonalar, interaktiv dars uslublari va xorijiy tajribaga ega o'qituvchilar ishtirokida ingliz tilini o'qitish sezilarli darajada samarali kechmoqda.

Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish sohasida hali ham muhim muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, metodik yondashuvlarning eskirganligi, o'qituvchilarning malaka darajasidagi tafovutlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi dars samaradorligini pasaytirayotgan asosiy omillar sifatida belgilandi.

Aksariyat o'qituvchilar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan foydalanmayapti, bu esa o'quvchilarning ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda (Brown, 2015; 5). Bundan tashqari, o'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladigan CLIL va task-based learning metodikalarining sust qo'llanilishi ta'lim sifati va motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunga qaramay, ayrim ilg'or maktablar tajribasi shuni ko'rsatdiki, zamonaviy metodikalarning joriy qilinishi, o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi va texnik infratuzilmaning yaxshilanishi natijasida ingliz tilini o'qitish sifati sezilarli darajada oshadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot O'zbekiston umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili ta'limini zamonaviylashtirishga qaratilgan islohotlarga qaramay, ularning amalda joriy etilishi turlicha bo'lib, ko'plab tizimli muammolar mavjud.

Ko'pchilik o'qituvchilar hanuzgacha grammatikaga asoslangan an'anaviy metodlardan foydalanmoqda. Bu esa o'quvchilarda ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishda yetarli natija bermayapti. CLIL va topshiriqqa asoslangan

o'qitish kabi zamonaviy metodlarning kam qo'llanilishi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, ko'plab maktablarda texnik infratuzilmaning yetishmasligi va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishdagi muammolar ham dars samaradorligini pasaytirmoqda. O'qituvchilarning malaka oshirish kurslarida yetarli darajada ishtirok etmasligi esa mavjud muammolarning chuqurlashishiga olib kelmoqda.

Shunga qaramay, ayrim tajriba maktablarida joriy etilgan innovatsion metodlar va xalqaro hamkorliklar ijobiy natijalar bermoqda. Bu holatlar boshqa maktablar uchun samarali model bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish uchun

quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlar amalga oshirilishi zarur:

- *Dars metodikalarini zamonaviylashtirish;*
- *O'qituvchilarni doimiy ravishda kasbiy rivojlantirish;*
- *Maktablarni raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash;*
- *Ilg'or tajribalarni boshqa maktablar o'rtasida ommalashtirish.*

Mazkur muammolarni hal etmasdan turib, o'qituvchilarning ingliz tili bo'yicha kompetensiyasini oshirish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashish maqsadlariga erishish mushkul bo'ladi. Shu boisdan ingliz tilini o'qitish jarayonini takomillashtirishda maktab rahbariyati, malaka oshirish muassasalari va ta'lim siyosatini yurituvchi organlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. Ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanma, 2023.
2. Brown, H. D. (2015). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson, 5-7.
3. Karimova, Z. (2022). O'zbekiston maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayonining zamonaviy holati. // *Ta'lim va Innovatsiyalar*. – 2022. – №3(2). – B., 45-52.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.), 15-20. Cambridge University Press.
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/03/28/quality-of-education>